

YANGI O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING QONUNIY ASOSLARI

Xoliqulov R. Dots.

Tarix fanlar nomzodi, SamDU

Isroilov K. Tarix fakulteti,

2-bosqich magistranti, SamDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda band bo'limgan aholini ish bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga oid Prezident qarorlari, istiqbolli strategiyalar va islohotlar batafsil yoritib berilgan. 2017-2025-yillar oralig'ida O'zbekistonni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha jami 3 ta strategiya qabul qilingan bo'lib, ushbu maqolada strategiyalarning aynan ijtimoiy sohaga oid bandlari alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, qaror, mahallabay ishslash tizimi, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, yoshlar, xotin-qizlar, daromad, "Temir daftар", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari".

Abstract: This article describes in detail the presidential decisions, promising strategies and reforms related to providing employment to the unemployed population and reducing poverty in New Uzbekistan. In the period of 2017-2025, a total of 3 strategies for the economic and social development of Uzbekistan were adopted, and the articles of the strategies related to the social sphere are analyzed separately in this article.

Key words: Poverty, decision, neighborhood work system, Action strategy, Development strategy, youth, women, income, "Iron notebook", "Women's notebook", "Youth notebook".

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlari kun sayin yuqorilab borayotgani hech kimga sir emas. Yurtboshimiz tomonidan xalqimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar odamlarni yanada vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga undamoqda. Ayniqsa, taraqqiyotdan ortda qolayotgan olis hududlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning davr talabiga mos tarzda yangilanayotgani, chekka hududlarga ham sanoatning barcha tarmoqlari kirib borayotganligi, u yerlarda ham yangi ish o'rinalining yaratilyotgani, shu asnoda, odamlarning turmush sharoiti yaxshilanayotgani, albatta, quvonarlidir.

O'tgan yillar davomida O'zbekistonda boshqako'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda. Boshqacha aytganda, mamlakatimiz haqiqatan ham "ijtimoiy adolat" tushunchasiga mos keladigan davlat siyosati modeli tanlangan. Chunki ming yillar davomida zaminimizda odamlar bir-biriga yordam berishi, og'ir hayotiy vaziyatlarda qolgan qashshoq va zaif aholi qo'nishni, mahalla va jamiyatdan madad olishi lozim, degan an'anaviy dunyoqarash shakllangan. O'zbekistonda ijtimoiy shartnoma ijtimoiy ahloqning ko'p asrlik tamoyillariga asoslangan. Shunday bo'lsa-da, ko'p yillar mobaynida kambag'allikning mavjudligi bir qancha sabablarga ko'ra rasmiy ravishda ochiqlanmagan, kambag'allikni aniqlashning aniq mezonlari yo'q edi va bu bilan samarali ijtimoiy siyosat yuritib bo'lmas edi. Yurtimizda 2008-2010 yillar davomida Respublika aholisini ijtimoiy farovonligini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi. Ammo, kambag'allarni real qo'llab-quvvatash bo'yicha islohotlar amalga oshirilmadi.¹

2017-yildan O'zbekiston Respublikasi Xalq qabulxonalari orqali aholi murojaatlari batafsil o'rganib chiqildi va bu sohaning chuqur islohotlarga muhtojligi aniqlandi. Murojaatlarda aholi turmush darajasi, uy-joyi, bandligi, davlat xizmatlari, sog'liqni saqlash va ta'lim bilan bog'liq ko'plab muammolar bayon qilingan.

¹ Xalq so'zi 2023-yil 18-aprel №76 (8439), 4-bet

Shularni inobatga olgan holda yurtboshimiz tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning dastlabkilaridan biri sifatida Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevral kuni qabul qilingan “2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ni aytib o’tishimiz mumkin. Bu strategiya besh bosqichda amalga oshirilib, har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda bir yillik davlat dasturi qabul qilinadi va shu dastur asosida ishlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan edi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining uchinchi va to’rtinchi yo‘nalishlari iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Iqtisodiy sohani rivojlantirish yo‘nalishida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish belgilab qo‘yilgan bo’lsa, to’rtinchi yo‘nalishida aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va shu kabi boshqa islohotlar o’rin olgan edi.

2021-yil 5-oktabrda Toshkent shahrida «Taraqqiyot strategiyasi» markazi tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamkorligida «O‘zbekiston: besh yil ichidagi jadal islohotlar» mavzusida xalqaro konferentsiya tashkil etildi. Tadbir davomida «Taraqqiyot strategiyasi» markazi ijrochi direktori **Eldor Tulyakov** tomonidan Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilgan barcha islohotlar va ularning natijalari haqidagi ma’lumotlarni tinglandi. Xususan, 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda Xalq qabulxonalari va Prezidentning Virtual qabulxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular aholi bilan bevosita muloqotni, tezkor javob berishni va joylarda

muammolar hal etilishini ta'minlab kelmoqda. 2017-yildan to 2020-yilgacha bo'lgan davrda ular orqali 10,1 mln. murojaatlar o'rganilib ijobiy hal etilgan.²

Xususan, maktabgacha ta'lif tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. 2016-yilda 5,2 ming bolalar bog'chalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-yida ular 18,3 mingga yetdi (shu jumladan davlat bog'chalari soni 5 mingdan 6,2 minggacha oshdi). Bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishi darajasi 2020-yilda 61% ga yetdi, vaholanki bu ko'rsatkich 2016-yilda 27,7% bo'lgan edi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda: kambag'allik darajasi 2000-yildagi 28% dan 2020-yilda 11% gacha qisqardi. Kam ta'minlangan oilalar bolalar bog'chalari uchun to'lovlardan ozod etilgan, kam ta'minlangan oilalarning bolalari bo'lgan maktab o'quvchilari mavsumiy kiyim bilan ta'minlanmoqda.³

Mamlakatimizda aholini kambag'allikdan chiqarish, jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish, yangi ish o'rinalarini yaratish, biznesga doir bilimini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ko'maklashish bo'yicha muhim voqealar, tarixiy islohotlar boshlandi. O'rganilgan xorij tajribasi va mavjud vaziyatdan kelib chiqib, yurtimizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish bo'yicha zarur hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, 2020-2022-yillarda Prezidentimizning kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan 30 dan ortiq farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 20 dan ortiq qarorlari qabul qilindi. Mamlakatimizda Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida kambag'allikni qisqartirishning institutsional asoslari yaratilib, ushbu masalalarni muvofiqlashtirishchi vazirlik hamda shu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib boruvchi ilmiy markaz tashkil etildi.⁴

Kambag'allikni qisqartirish sohasidagi o'ziga xos va boshqa mamlakatlardan tubdan farq qiladigan jihat, yurtimizda mahalla institutining mavjudligidir. Mahallada

² <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz>

³ <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz>

⁴ Yangi O'zbekiston 2024-yil 23-iyul, №146 (1207) 3-bet

har bir oilaning turmush darajasini monitoring qilish orqali yashash sharoiti, asosiy ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojlarini aniqlash imkonи mavjud. Shuning uchun kambag'allik ko'lmini obyektiv baholash, monitoring qilish, aniq chora-tadbirlar ko'rishda mahallaning o'rni va ahamiyati juda katta. Ayni shu sababli 2019-yil mayda mahalla bo'yicha baholash va shaffoflik asosida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ro'yxatiga "Temir daftar" yuritilishi yolga qo'yildi. Keyinchalik muhtoj aholi ro'yxatlarini aniqlashtirish maqsadida "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" shakllantirildi.⁵

Shu asnoda, mahallabay ish tizimi joriy etildi. Bu ham, aslida, kambag'allikni qisqartirishning nostandard usullaridan biridir. Hududlarda ushbu tizim orqali daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshishiga moliyaviy ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda oilalarning daromad manbalari, jumladan, tomorqadan foydalanishi hamda daromadli mehnatga intilishi va ehtiyojlarini xonadonbay o'rganish, band bo'limgan aholi, ayniqlsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar muommolarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi kurslarga yo'naltirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga amaliy ko'maklashish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g'oyalalarini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Ehtiyojmand aholining aniq manzilli ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda, adolatli ijtimoiy himoyani ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan fuqarolar, yoshlar, ayollar va qariyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'ndan ortiq davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Kambag'al oilalar a'zolarini ta'lim olishi va sog'ligini tiklashi, ularni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, "Temir daftar" ga kiritilganlarning oliy ta'lim olishi uchun ko'plab

⁵ Yangi O'zbekiston 2024-yil 23-iyul, №146 (1207) 3-bet

qulaylik va imkoniyatlar yaratildi. Bu daftarga kirgan oilalarning farzandlari oliy ta'limga kirish uchun kvotalar grant asosida ko'paytirildi.

Darhaqiqat, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinni olishni, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazishni nazarda tutadi. Bunday yuksak marraga erishish yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar natijadorligi yil sayin yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Raqamlarda keltirilishicha, o'tgan yili yurtimizda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 29,3 million so'm yoki 2494 dollarga yetdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi 4 million 551 ming so'mni tashkil etdi.⁶

Yodingizda bo'lsa, davlatimiz rahbari 2023-yili 19-sentabr kuni BMT bosh assambleyasida so'zlagan nutqida O'zbekiston global tahidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etayotganini ta'kidlagan edi. So'ngi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko'paydi. Bosh maqsad esa 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir. Aholi turmush darajasini ko'tarishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobarga kamaydi. 2021-yilda kambag'allik darajasi mamlakatimizda 17 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 11 % foizga, 2024-yilda esa 9,4 % ga qisqarishga erishildi. 2030-yilgacha uni 7 % ga tushirish belgilangan.⁷

"O'zbekiston-2030" strategiyasida ham kambag'allik darajasini qisqartirish, jumladam, 2026-yilgacha kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobar, 2030-yiliga qadar esa keskin qisqartirish, kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida besh yuz ming malakali mutaxassis tayyorlash kabi aniq maqsadlar belgilab berilgan.

Xulosa qilganda, bu masala hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "O'zbekiston-2030" Strategiyasining 2025-yil "Atrof-

⁶ Xalq so'zi 2024-yil 2-iyun, №109(8732) 2-bet

⁷ Xalq so'zi 2025 yil 17-yanvar №12(8907) 1-bet

muhitni asrash va “Yashil” iqtisodiyot yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ushbu yilda 3,5 ming kambag’al oila farzandlari Oliy ta’lim tashkilotlariga grant asosida qabul qilinishi, “Kambag’allikdan-farovonlik sari” dastur doirasida mamlakatimizda 2025-yilda 1 mln dan ortiq aholini kambag’allikdan chiqarish belgilangan. Bizning fikrimizcha, bu tadbirlarni amalga oshirishda Parlament nazoratini yanada kuchaytirish lozim. Ushbu ustuvor vazifalar bu boradagi ishlar rivojini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. //<https://president.uz/uz/lists/view/3324>. (25.06.2021)
- 2.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent:O‘zbekiston, 2021.- B.438.
- 3.Mustafaqulov Sh,Murodullayev N, Xamidov R. O‘zbekistonda kambag’allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.2020. №1. –B.-80-81.
- 4.Xalq so’zi 2023-yil 18-aprel №76 (8439), 4-bet
- 5.Yangi O’zbekiston 2024-yil 23-iyul, №146 (1207) 3-bet
- 6.Xalq so’zi 2024-yil 2-iyun, №109(8732) 2-bet
- 7.Xalq so’zi 2025 yil 17-yanvar №12(8907) 1-bet

Internet-resurs manbalari

8. <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz>